

# Ishonch telefoni reglamenti

## QISQA RAQAM 238 56 39

**Ish vaqti:** haftaning dushanba-juma kunlari, 9:00 dan 18:00gacha

**Shahar hokimligining «Ishonch» telefonlari orqali kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni ko'rib**

**chiqish tartibi to'g'risidagi**

### YO'RIQNOMA

#### I. Umumiy qoidalar.

Ushbu yo'riqnomaning maqsadi viloyat, shahar, tuman hokimliklarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, (*bundan buyon matnda murojaatlar deb yuritiladi*) bilan ishlashni yaxshilash, fuqarolarga ularni qiynab turgan muammolarini joyni o'ziga chiqish yo'li bilan hal etishga yaqindan yordam berishdan iborat.

Viloyat hokimining ko'rsatmasiga binoan amaldagi shtatlar jadvali doirasida viloyat hokimligi apparati xodimlaridan birlariga «Ishonch» telefoni orqali kelib tushayotgan murojaatlarni qayd etib borish topshirig'i beriladi.

#### II. Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Ushbu yo'riqnomaga O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar to'g'risida» gi qonuniga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Ushbu yo'riqnomaning amal qilishi:

ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, xo'jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga;

davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo'linmalarining o'zaro munosabatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### III. «Ishonch» telefoniga murojaat etish tartibi.

Viloyat hokimligining Farg'ona shahar Navoiy ko'chasi 15-uyida joylashgan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish xonasida jismoniy va yuridik shaxslardan telefon orqali kelib tushgan og'zaki murojaatlarni qabul qilib olish uchun 244- 07-50 va 244- 05-23 raqamli telefonlar joriy etiladi.

Ushbu telefonlar raqamlari viloyat ommaviy axborot vositalari orqali keng axoli qatlamlariga etkaziladi.

Mazkur telefonlarga murojaatlar og'zaki ravishda ertalab soat 9-00 dan kech 18-00 qadar dushanba - shanba kunlari qabul qilinadi. Telefon orqali ma'muriy lumot berish muddati 20 minutdan oshmasligi kerak.

Viloyat hokimligining «Ishonch» telefoniga murojaat qilgan shaxslar o'z shaxsini tasdiqlovchi ma'muriy lumotlarini, yashash manzilini, javoblar berish uchun uy yoki qo'ng'irak telefonlari raqamlarini va murojaatining asosiy maqsadini telefon orqali aniq ma'muriy lum qilishlari zarur.

Murojaat etuvchi o'zining ismi familiyasi, yashash manzili, telefon raqami va murojaatida ko'rsatilgan korxon va tashkilotning joylashgan manzili, uning raxbari to'g'risidagi ma'muriy lumotlarni aytishdan bosh tortgan holatlarda, bunday murojaatlar anonim deb topilib, ko'rib chiqilmasligi mumkin.

Maâ€™lumotlarni yozib olgan viloyat hokimligining belgilangan masâ€™ul xodimi kun boâ€™yi qabul qilingan murojaatlarning ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

#### **IV. Â«IshonchÂ» telefoniga tushgan murojaatlarni koâ€™rib chiqish tartibi.**

Qabul qilib olingan murojaatlar roâ€™yxatlari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda belgilangan topshiriqlar yuzasidan taaluqli tashkilotlarga tegishli topshiriqlar berish uchun viloyat hokimiga taqdim etiladi.

Viloyat hokimidan imzolaniib chiqqan topshiriq umumiy boâ€™lim rahbarining yoâ€™naltiruvchi xati bilan taaluqli ijrochilarga etkaziladi.

Ijrochilar tomonidan Â«IshonchÂ» telefoni orqali kelib tushgan murojaatlarni 15 kunlik muddatda (*agar viloyat hokimi tomonidan boshqa muddatlar belgilanmagan boâ€™lsa*) oâ€™rganib chiqib, ijrosini taâ€™minlash choralarini koâ€™riladi. Oâ€™rganish natijalari yuzasidan murojaat etuvchiga va viloyat hokimligiga yozma maâ€™lumotlar yuborishlari shart.

Kelib tushgan murojaatlarga ijrochilar tomonidan berilgan javoblarning xaqqoniyligiga viloyat hokimligi umumiy boâ€™limi xodimlari jismoniy va yuridik shaxslarning mavjud telefonlari orqali aniqlik kiritishlari mumkin.

Ijrochilar tomonidan sifatsiz koâ€™rilgan murojaatlar takroran koâ€™rib chiqish uchun qaytariladi.

Murojaatlar viloyat hokimligi apparati xodimlari tomonidan ijrosi taâ€™minlangan hollarda, mualliflarga javoblarni telefon orqali berilishiga va nazoratdan chiqarilishiga ruxsat etiladi.

Har bir kelib tushgan murojaatlar yuzasidan koâ€™rilgan chora-tadbirlar va ularning natijasi yuzasidan viloyat hokimiga maâ€™lumot kiritib boriladi.

Viloyat hududida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalar va tashkilotlar, viloyat boshqarmalari rahbarlari, shahar, tuman hokimliklari viloyat hokimligining Â«IshonchÂ» telefoni orqali tushgan va ularga ijro uchun yuborilgan murojaatlarni Oâ€™zbekiston Respublikasining Â«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar toâ€™gâ€™risidaÂ»gi qonun va mazkur yoâ€™riqnomada belgilangan tartib asosida koâ€™rib chiqishga masâ€™uldir.



## **Ishonch telefoni REGLAMENTI ( 28.3 ĐŠĐ± )**



## **Yagona telefoni REGLAMENTI ( 28.3 ĐŠĐ± )**